



ARTICLE INFO

Received: 22th March 2024

Accepted: 28th March 2024

Online: 29th March 2024

KEYWORDS

Sexual harassment, rape, use of rape, rape against women, crimes committed using rape, rape against women.

ISSUES OF RESPONSIBILITY FOR CRIMES COMMITTED USING SEXUAL HARASSMENT AGAINST WOMEN IN THE LEGISLATION OF CERTAIN FOREIGN COUNTRIES

Abdurasulova is the daughter of Khadichakhan Ravshanbek

Graduate student of Tashkent State Law University

e-mail: xadichaabdurasulova06@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10894808>

ABSTRACT

The article provides a comparative-legal analysis of the issues of liability in the legislation of the CIS and foreign countries of crimes committed using sexual violence against women, their specifics and similar and different aspects with the existing norms in the criminal law of the Republic of Uzbekistan.

ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЯ, СОВЕРШЕННЫЕ С ПРИМЕНЕНИЕМ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Абдурасулова Хадичахон Равшанбек қизи

Аспирант Ташкентского государственного юридического университета

e-mail: xadichaabdurasulova06@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10894808>

ARTICLE INFO

Received: 22th March 2024

Accepted: 28th March 2024

Online: 29th March 2024

KEYWORDS

Сексуальное насилие, применение насилия, насилие в отношении женщин, преступления с применением насилия, насилие в отношении женщин.

ABSTRACT

В статье проведен сравнительно-правовой анализ вопросов ответственности за преступления, совершенные с применением сексуального насилия в отношении женщин в законодательстве СНГ и зарубежных государств, их специфики и сходства и различия с действующими нормами уголовного законодательства Республики Узбекистан.

AYRIM XORIJUY MAMLAKATLAR QONUNCHILIGIDA XOTIN-QIZLARGA NISBATAN JINSIY ZO'RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI

Abdurasulova Xadichaxon Ravshanbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: xadichaabdurasulova06@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10894808>



ARTICLE INFO

Received: 22th March 2024

Accepted: 28th March 2024

Online: 29th March 2024

KEYWORDS

Jinsiy zo'rlik, zo'ravonlik, zo'rlik ishlatish, xotin-qizlarga nisbatan zo'rlik, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar,
ayollarga nisbatan zo'rlik.

ABSTRACT

Maqolada ayollarga nisbatan jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning MDH va xorijiy davlatlar qonunchiligidagi javobgarlik masalalari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi mavjud normalar bilan o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

O'z ko'lamiga ko'ra xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik ishlatilish holatlari global muammo hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur mavzu nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro miqyosda ham jiddiy xavf tug'dirmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 15 yoshdan oshgan har uchinchi ayol hayoti davomida kamida bir marta bo'lsa ham jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka uchramoqda.

Insonga, shaxsga nisbatan zo'ravonlik qilish, uni tahqirlash, haq-huquqini poymol qilish aslo toqat qilib bo'lmaydigan holatdir. Ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilishga e'tibor nafaqat davlatlarning ichki qonunchiligidagi balki xalqaro miqyosda ham dolzarb bo'lib, xotin-qizlarga nisbatan zo'rlik ishlatilish holatlariga qarshi kurashish borasida BMT tomonidan bir qancha xalqaro hujjatlar ishlab chiqilgan.

Bunday xalqaro hujjatlar qatoriga Xalqaro Mehnat Tashkiloti doirasida imzolangan Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyasi (1919-yil), BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakti (1966-yil), Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasi (1979-yil); Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (1989-yil), Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish to'g'risidagi deklaratsiyasi (1993-yil), Yevropa Ittifoqi tomonidan imzolangan Ayollarga nisbatan va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurashish to'g'risida Istanbul Konvensiyalarini (2011-yil) va boshqalarni kiritish mumkin.

Xususan, yurtimizda ham ayollarga nisbatan zo'rlik ishlatish bilan bog'liq holatlarni oldini olish uchun jinoiy va ma'muriy turdag'i jazo choralar belgilangan bo'lib, so'nggi yillarda mazkur mavjud normalarni takomillashtirish yuzasidan qonunchiligidan qancha islohotlar olib borildi. Bular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023 yil 11 aprel kuni imzolangan "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yana-da takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 829-sonli Qonuni keltirsak bo'ladi.

Mazkur hujjatga ko'ra, maishiy (oilaviy) zo'ravonlik uchun quyidagicha javobgarlik masalalari belgilandi:

ma'muriy javobgarlik, maksimal jazo chorasi: BHMning 10 baravaridan 20 baravarigacha jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoq;

jinoiy javobgarlik, maksimal jazo chorasi: 10 yildan 12 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi.



Shuningdek, jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori ushbu eng ko'p jazoning to'rtdan uch qismidan oshmasligi kerakligi to'g'risidagi qoida quyidagi jinoyatlarga nisbatan ham tatbiq etilmaydigan bo'ldi:

o'n sakkiz yoshga to'limgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiyy usulda qondirish;

o'n olti yoshga to'limgan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiyy usulda qondirish;

voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoxud voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etish;

voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilish, fohishaxonalarini tashkil etish yoki saqlash.

Yuqoridagi jinoyatlar hamda 18 yoshga to'limgan shaxsni jinsiy aloqada bo'lish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiyy usulda qondirish bilan bog'liq holda jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik jinoyatini sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish chorasi qo'llanilmasligi ham belgilab qo'yildi.

Dunyodagi barcha davlatlarning milliy qonunchiligidagi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, xususan shaxsning hayoti, sog'ligi, sha'ni va qadr-qimmatini turli jinoiy tajovuzlardan himoya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ijtimoiy munosabatlarni himoya qilishda va javobgarlik masalalarini yanada takomillashtirishda xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning qiyosiy-huquqiy tahlilini amalga oshirar ekanmiz, avvalo, tahlilni ikki paragrafga bo'lib, ya'ni MDH davlatlari va uzoq xorijiy davlatlarga ajratib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

MDH davlatlari qonunchiligidagi xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik masalalari. MDH davlatlar jinoyat qonunchiligidagi jinoiy ta'qibga uchraydigan jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan aybli ijtimoiy xavfli qilmishlarning tavsiflanishi, moddalarning nomlanishi deyarli bir-birinikiga o'xshab ketadi. Tahlillar davomida shuning guvohi bo'ldikki, Rossiya Federatsiyasi[1], Belorus[2], Armaniston[3], Ozarbayjon[4], Tojikiston[5], Qozog'iston[6]va Qirg'iziston[7] Respublikalarida ayollarga nisbatan jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan moddalarning nomlanishi va ularning mazmuni o'xhash bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- nomusga tegish;
- jinsiy xarakterdagи zo'ravonlik harakatlari;
- jinsiy xarakterdagи harakatlarni sodir etishga majburlash.

Sanab o'tilgan davlatlar orasida Armaniston va Tojikistonda mazkur jinoyat turlaridan tashqari uyatsiz-buzuq harakatlarni og'irlashtiruvchi hollarda ya'ni zo'rlik ishlatish orqali sodir etganlik uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan.

MDH davlatlar Jinoyat qonunchiligini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, nomusga tegish jinoyati barcha MDH davlatlari jinoyat kodekslarida mavjud va modda dispozitsiyalari ham



juda o'xshash, ammo nomusga tegish jinoyati uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalarning og'irlashtiruvchi qismlari har bir davlat Jinoyat kodekslarida o'ziga xos bo'lib, bir davlat jinoyat qonunchiligidagi nomusga tegish jinoyati uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalarning og'irlashtiruvchi qism bandlari boshqa bir davlatnikidan farq qiladi.

Xususan, Qozog'iston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi nomusga tegish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan modda dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi 118-moddasi dispozitsiyasi bilan bir xil bo'lib, faqatgina Qozog'iziston Respublikasi jinoyat kodeksi 120-moddasi[6] og'irlashtiruvchi qismlarida bizning qonunchilikda belgilanganmagan holatlar keltirib o'tilgan. Misol uchun, o'ldirish tahdidi bilan, shuningdek jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslarga nisbatan shafqatsizlik bilan sodir etilgan bo'lsa; jabrlanuvchiga jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasallik yuqishiga olib kelgan bo'lsa; xizmat vazifalarini bajarish davomida sodir etilgan bo'lsa; ehtiyoitsizlik orqasidan jabrlanuvchiga og'ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo'lgan bo'lsa, OIV yuqishiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa; ikki yoki bir necha voyaga yetmagan shaxsga nisbatan; kichik yoshdagi shaxslarga nisbatan sodir etilgan bo'lsa yoki ehtiyoitsizlik tufayli jabrlanuvchining o'limiga olib kelgan bo'lsa.

Xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan yana bir ijtimoiy xavfli qilmish, jinsiy xarakterdagi zo'ravonlik harakatlari jinoyatini tahlil qiladigan bo'lsak, Qozog'iston jinoyat kodeksi 121-moddasida[6] belgilanishicha, jabrlanuvchiga yoki boshqa shaxslarga nisbatan yoki jabrlanuvchining nochor holatidan foydalangan holda zo'rlik ishlatib yoki uni qo'llash tahdidi bilan jinsiy xarakterdagi besoqolbozlik, lesbiyanlik yoki boshqa jinsiy harakatlarni sodir etish javobgarlik keltirib chiqaradi.

Xuddi shu mazmundagi javobgarlik Rossiya, Belorus, Ozarbayjon, Tojikiston va Qirg'iziston davlatlarining jinoyat kodeksida ham o'z aksini topgan. Armanistonda esa mazkur jinoyat uchun javobgarlik belgilangan modda dispozitsiyasi bir muncha farqli bo'lib, unda besoqolbozlik va lesbiyanlik iboralarini o'rniga gomoseksuallik iborasidan foydalanilgan.

Fikrimizcha, jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni shaxslarga nisbatan bu kabi individuallashtirish va shunga asosan javobgarlik belgilanishi maqsadga muvofiq. Chunki javobgarlikni shaxslarga nisbatan individual holda belgilanishi kelajakda mazkur toifadagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda shaxslar doirasini belgilashda kelib chiqishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi.

Ukraina jinoyat kodeksida jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar ro'yxati bir muncha farqli bo'lib, unga ko'ra, nomusga tegish (152-m); jinsiy zo'ravonlik (153-m); jinsiy aloqa qilishga majburlash (154-m) uchun javobgarlik belgilangan[8].

Turkmaniston jinoyat qonunchiligidagi nazarda tutilgan jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar ro'yxati O'zbekiston jinoyat qonunchiligi bilan juda ham o'xshash hisoblanadi. Xususan, nomusga tegish (132-m); jinsiy ehtiyojini g'ayritabiiy usulda qondirish (134-m); jinsiy aloqa qilishga majburlash (135-m) singari qilmishlarni sodir etish Turkmaniston jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlik keltirib chiqaradi[9].

Moldovada barcha MDH davlatlaridan farqli ravishda jinsiy shilqimlikni (173-m) sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan[10].

MDH davlatlarining jinoyat kodeksini o'rganish orqali shuni aytishimiz mumkinki, Rossiya, Belorus, Armaniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'iziston jinoyat kodeksida jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari bir-



birinikiga juda o'xshash va ular o'rtasida katta farq mavjud emas, shu o'rinda Turkmaniston va O'zbekistonda ham mazkur jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan moddalar o'xshash, Moldova jinoyat qonunchiligidagi esa boshqa MDH davlatlar jinoyat kodekslarida nazarda tutilmagan javobgarlik masalalari belgilangan.

Uzoq xorijiy davlatlar qonunchiligidagi xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik masalalari.

Ayollarga nisbatan jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar Amerika Qo'shma Shtatlari qonunchiligidagi eng og'ir turdag'i jinoyatlar turkumiga kiradi. AQSH milliy statistika qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra, Amerikada har beshta ayoldan bittasi jinsiy zo'rlik qurboni bo'lmoqda[11].

AQSH qonunchiligidagi mazkur toifadagi jinoyatlar uchun javobgarlik AQSH federal qonunlari bilan yoxud shtatlarning o'z qonunchiligidagi ko'ra belgilanadi. Jinsiy zo'rlik tushunchasiga har bir shtat qonunchiligidagi alohida ta'rif ishlab chiqilgan bo'lib, jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar ro'yxati har bir shtat kesimida turlicha hisoblanadi. Qaysi bir shtatlar jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan harakatlarni alohida jinoyat sifatida keltirsaga, yana qaysi birlari esa mazkur harakatlarni birlashtirib yagona jinoyat sifatida keltirishadi. Ammo barcha shtatlar qonunchiligidagi nomusga tegish va jinsiy aloqa qilishga majburlash jinoyati mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Amerika Qo'shma Shtatlari kodeksining 18-bo'limi federal hukumatning asosiy jinoyat kodeksi hisoblanadi. Jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlik AQSH kodeksi 18-bo'limi 109A (jinsiy zo'ravonlik) bobida[12] keltirilgan bo'lib, unga ko'ra federal qonunchilik jinsiy zo'ravonlik va majburiy jinsiy aloqa qilish, shuningdek, bolalarga nisbatan bolalar pornografiyasiga va bolalarning jinsiy savdosi orqali jinsiy xarakterdagi harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni nazarda tutadi.

Federal qonunchilik shaxslarga nisbatan quyidagi harakatlarni bila turib sodir etish yoki sodir etishga harakat qilishni ta'qilaydi:

- o'zga bir shaxsga tahdid qilish yoki qo'rquvga solish orqali jinsiy harakatga undash;
- o'zga bir shaxs bilan o'zining unga nisbatan sodir etayotgan harakatlarini yetarlicha baholay olmasligini, yoxud jinsiy harakatlar sodir etilayotgan shaxsning jismoniy nuqsoni tufayli jinsiy aloqa qilishga xohishini ifodalay olmasligini yoki rad eta olmasligini bilib turib jinsiy aloqa qilish;
- o'zga bir shaxs bilan uni erkiga zid ravishda, shu jumladan majburlash orqali jinsiy aloqa qilish.

Amerika federal jinoyat qonunchiligidagi o'ziga xos bir jihat shundaki, jinsiy zo'rlik ishlatib ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etgan jinoyatchilar ro'yxati yuritiladigan alohida platforma mavjudligidadir. Jinsiy zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etgan barcha shaxslar "Jinsiy jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchilar ro'yxatdan o'tkazish va xabardor qilish to'g'risida"gi Amerika qonuniga (SORNA)[13] ko'ra, jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tishlari lozim. Aks holda, mazkur talabni bajarmaganliklari uchun yana bir jinoyat hisoblanuvchi "jinsiy jinoyatchi sifatida ro'yxatdan o'tish tartibini buzish" qilmishini sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Mazkur jinoyatchi shaxslar reyestri AQSH Adliya vazirligi tomonidan <https://www.nsopw.gov/> sayti orqali olib boriladi va shu sayt orqali har qanday shaxs haqida jinsiy zo'rlik jinoyatlarini sodir etgan yoki etmaganligini aniqlash imkoniyati mavjud.



Fikrimizcha, mazkur ro'yxat yuritilishi maqsadga muvofiq va bizning qonunchilikda ham shu kabi davlat reyestrini joriy qilish lozim. Biroq mazkur davlat ro'yxatini shakllantirish jinoyat sodir etgan shaxslarning huquqlarini cheklash, kelajakda ularni jamiyatda hamisha jinoyatchi sifatida ko'rilihiga va bu uning psixologiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Ammo mazkur toifadagi jinoyatlar ijtimoiy xavfligiga ko'ra o'ta og'irligi ya'ni uni sodir etilishi kelajagimiz asosiy bog'ini bo'l mish yosh qizlarimiz va ayollarimiz qurboni bo'lishiga, oilalarni buzilishiga yoki notinchligiga olib kelganligi bois, shuningdek, odatda mazkur toifadagi shaxslarning jinoyat sodir etishdan tiyilish ehtimoli kamligi va mazkur toifadagi jinoyatlar qasddan sodir etilishini hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, bu kabi jinoyatchilar reyestrini joriy etish jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etilishini oldini olishga xizmat qiladi.

Fransiya jinoyat qonunchiliga ko'ra, xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar umumiyligi "jinsiy agressiya" tushunchasi asosida birlashadi va "jinsiy agressiya" deganda – har qanday zo'rlik ishlatish, majburlash, qo'rqtish va aldash orqali qilinadigan tajovuz tushuniladi. Jinsiy agressiya uch guruhga bo'linadi: nomusga tegish, jinsiy ta'qib qilish va boshqa turdag'i jinsiy agressiyalar. Fransiya jinoyat kodeksi 222-22-1 moddasiga ko'ra, jinsiy zo'rlik ruhiy yoki jismoniy bo'lishi mumkin[14].

Fransiya jinoyat kodeksiga ko'ra nomusga tegish jinoyatini sodir etganlik uchun aybdor shaxslar – 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish; og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etganlik uchun – 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish; agar nomusga tegish jabrlanuvchi o'limiga olib kelgan bo'lsa – 30 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish; agar nomusga tegish qiyash yoki boshqa shafqatsiz harakatlar bilan sodir etilgan bo'lsa – umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni Germaniya qonunchiligi bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, boshqa davlatlardan farqli ravishda mazkur jinoyat turlari uchun turli xil jinoiy javobgarlikni ta'qib qiluvchi normalar mavjudligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Ular quyidagicha:

- o'z qaramog'i ostidagi shaxsga nisbatan jinsiy zo'rlik;
- mahbuslarga, rasmiy buyruq bilan hibsga olingan shaxslarga va maxsus muassasalarga joylashtirilgan kasal yoki himoyasiz shaxslarga nisbatan jinsiy zo'rlik;
- o'z xizmat vazifalaridan foydalangan holda jinsiy zo'rlik;
- davolash yoki konsultatsiya berishdan foydalangan holda jinsiy zo'rlik;
- bolalarga nisbatan jinsiy zo'rlik;
- jinsiy aloqa qilmasdan bolalarga nisbatan jinsiy zo'rlik;
- jismoniy aloqasiz bolalarga nisbatan jinsiy zo'rlik;
- bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikka tayyorgarlik;
- og'irlashtiruvchi holatlarda bolalarga nisbatan jinsiy zo'rlik;
- bolalar o'limiga olib kelgan jinsiy zo'rlik;
- jinsiy zo'rlik; jinsiy majburlash; nomusga tegish;
- jabrlanuvchi o'limiga olib kelgan jinsiy zo'rlik; jinsiy majburlash; nomusga tegish.

Germaniya jinoyat qonunchiliga ko'ra, ayblanuvchi jabrlanuvchini jinsiy zo'rashi natijasida ehtiyyotsizlikdan jabrlanuvchining o'limi kelib chiqadigan bo'lsa - o'n yil ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan. Bu



kabi norma Germaniya jinoyat kodeksi 176d – bo’limi (bolalar o’limiga olib kelgan jinsiy zo’rlik) va 178-moddasida (jabrlanuvchi o’limiga olib kelgan jinsiy zo’rlik; jinsiy majburlash; nomusga tegish) belgilab qo’yilgan[15].

Yuqorida o’rganib chiqilgan tahlillarga asosan quyidagilarni taklif qilamiz:

birinchidan, xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo’rlik ishlatib jinoyat sodir etgan shaxslarning ro’yxatini shakllantirish va ularni hisobga olish uchun yagona davlat reyestirini joriy qilish;

ikkinchidan, ko’plab MDH davlatlar qonunchiligidagi mavjud bo’lgan “jinsiy xarakterdagi zo’ravonlik harakatlari” jinoyati uchun javobgarlik masalalarini O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilash.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, uzoq xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligidagi xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo’rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar O’zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidan juda katta farq qiladi. Uzoq xorijiy mamlakatlar ichida Germaniya jinoyat huquqida ayollarga nisbatan jinsiy zo’rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari batafsil yoritilgan bo’lib, mazkur turdag'i ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etishning barcha shakllarini qamrab oluvchi normalar mavjud.

References:

1. Уголовный кодекс Российской Федерации от 13.06.1996 N 63-ФЗ (ред. от 25.02.2024) <https://www.zakonrf.info/uk/>
2. Уголовный кодекс Республики Беларусь от 9 июля 1999 года № 275-3 (ред. от 01.10.2023) https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30414984
3. Уголовный кодекс Республики Армении от 8 апреля 2003 года №3Р-528 <http://www.parliament.am/legislation.php?ID=1349&lang=rus&sel=show>
4. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики от 30 декабря 1999 года № 787-IQ (ред. от 22.12.2023) https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30420353
5. Уголовный кодекс Республики Таджикистан от 21 мая 1998 года № 574 (ред. от 13.11.2023) https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30420353
6. Уголовный кодекс Республики Казахстан от 02.07.21 г. № 62-VII (ред. от 12.09.2023) https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252
7. Уголовный Кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 127 (ред. от 26.02.2024) https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=36675065
8. Уголовный кодекс Украины от 5 апреля 2001 года № 2341-III (ред. от 09.12.2023) https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30418109
9. Уголовный кодекс Туркменистана от 12 июня 1997 года № 222-I (ред. от 25.11.2023) https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31295286
10. Уголовный кодекс Республики Молдова от 18 апреля 2002 года № 985-XV (ред. от 24.11.2023) https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30394923
11. <https://www.nsvrc.org/statistics>
12. <https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2009-title18/htm>
13. <https://smart.ojp.gov/sorna>
14. <https://www.legifrance.gouv.fr>
15. <https://www.gesetze-im-internet.de>